

## TIL VA TARJIMA MUAMMOLARI

**Sultonmurodova Nilufar Baxtiyorovna**

O'zbekiston Milliy Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi magistranti

Ilmiy ish rahbari: dots. **D.I. Djaffarova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tarjima nazariyasi va hozirgi kunda unda sodir bo'layotgan muammolarga e'tibor beradi. Qolaversa, aloqa-aralashuv vositasi, uning turlari va tarjimada noverbal aloqa-aralashuv vositalariga duch kelganda paydo bo'ladigan qiyinchiliklar haqida fikr yuritilib, qiyosiy tahlil o'tkazish orqali mazmun-mohiyatini yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** til, tarjima, lisoniy aloqa-aralashuv vositalari, noverbal aloqa vositalari.

**Annotation:** This article focuses on the theory of translation and the problems that occur in it today. In addition, the means of communication and intervention, its types and difficulties that arise when encountering non-verbal means of communication and translation are discussed, and the content is clarified by conducting a comparative analysis.

**Keywords:** language, translation, verbal means of communication, non-verbal means of communication.

**Аннотация:** Данная статья посвящена теории перевода и проблемам, возникающим в ней сегодня. Кроме того, обсуждаются средства общения и вмешательства, его виды и трудности, возникающие при столкновении с невербальными средствами общения и перевода, а также уточняется содержание путем проведения сравнительного анализа.

**Ключевые слова:** язык, перевод, вербальные средства общения, невербальные средства общения.

Biz biron-bir yegulik – ovqatmi, shirinlikmi – tanovvul qilamizmi, albatta, uning qanchalik mazali chiqishi unga qo'shilgan masalliq va so'zsiz, oshpazning mahoratiga bog'liq. Asarning qanchalik yaxshi chiqishi, uning ommabop va qo'lma- qo'l bo'lib ketishi ham yozuvchining mahorati hamda unda qo'llanilgan bejirim so'zlarga bog'liq. Qolaversa, bu asar bir tildan boshqa tilga o'girilishi va kengroq hududga tarqalishi yoki tarqalmasdan bir joyda qotib qolishi esa, albatta, tarjimonning qo'lidadir. Agarda tarjimon oldida uni intizorlik bilan kutayotgan ishiga chin ko'ngildan va bor mahoratini ishga solgan holda yondoshsa, bu asar jahon yuzini ko'ra oladi hamda buyuk asarlardan biriga aylanishi ham turgan gap. Aksincha bo'lsa, bu asar boshqa tilda o'zining bor nufuzini ham yo'qotadi va bu muallifga salbiy jihatdan ta'sir qilmasdan qolmaydi.

“Tarjima – bir tildagi matnni boshqa bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi va u millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Tarjima qadimiy davrlarda turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa-muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri kata bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima kata o'rin egallaydi.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va qonuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi. XX asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar."

Til – kishilik jamiyatining ko'p yillik individual va ijtimoiy jihatdan to'plangan ma'naviy boyliklarini namoyon etuvchi eng muhim aloqa vositasidir. Til orqali biz bir-birimiz bilan muloqotga kirishamiz, fikr almashamiz, yangi ilmlarga ega bo'lamiz. Lekin har bitta his-tuyg'ularimizni ham til orqali tinglovchiga yetkaza olmasligimiz mumkin. Bunda bizga lisoniy emas, balki nolisoniy bo'lgan aloqa-aralashuv vositalari, ya'ni og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari yordamga keladi. Tilning noverbal bo'lgan bu turiga imo-ishoralar, mimika, tana harakatlari va nutqdan tashqari boshqa bir qator vositalar kiradi. Og'zaki bo'lmagan aloqa-aralashuv turlari tinglovchiga nutqdan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi va shuning uchun ham nutqning ta'sirchanligini oshiradi, sheriklar orasida psixologik aloqani yaratishga yordam beradi. Qolaversa, u so'zlar orqali berilgan ma'nolarni boyitish, og'zaki matni izohlashga rahbarlik qiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda tarjimashunoslik keng va boy tarixga ega va hozirda ham tarjima kundan kunga rivojlansa rivojlanyapti-ki, lekin o'zining muhimligini yo'qotgani yo'q. Chunonchi, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining tarjima fakultetida, O'zbekiston Milliy Universitetining xorijiy filologiya fakulteti tarjima bo'limi magistraturasida hamda Samarqand Chet Tillari Institutida tarjimon kadrlarni tayyorlashga kata ahamiyat berilmoqda. Biz bular orqali yanada ko'proq bilim olmoqdamiz, dunyoqarashimiz kengaymoqda, zamon bilan hamnafas holda qadam bosmoqdamiz. Shu bilan bir qatorda, tarjima sohasida haligacha yechimini topolmayotgan bir qancha muammolar mavjud va olim-u tarjimonlarimiz ularning ustida ishlab kelmoqdalar.

Til – ma'lum bir asarda ishlatilganidan so'ng shu asarning badiiy tiliga aylanadi. Tarjimondan nafaqat til bilimdoni bo'lish, balki adabiyotshunos va elshunos bo'lish ham talab qilinadi. Chunki u qo'lida turgan asardagi bo'layotgan voqea-hodisani qalbdan his qilishi va uni xuddi shu tarzda keyingi o'quvchiga yetkazib berishi lozim. Ba'zan bugungi kunda kitob rastalaridagi xorijiy tillardan o'girilayotgan ko'plab tarjima asarlar o'zining bahosini olayotgani yo'q. Bu kitob holda tarjima qilinayotganlarida ba'zan qaysi tildan tarjima qilinganligi ham ko'rsatilmaydi. Bundan shuni tushunishimiz mumkin-ki, bu asarlar o'zining asl tilidan emas balki rus yoki ingliz tilidagi tarjimasidan bizning o'zbek tilimizga o'girilayotir. Tarjimon yozuvchining bu ijod mahsulini o'zining asl shaklida nimani his qilib yetkazib berayotganini bilmay turib, sezmay turib uni qanday qilib boshqa tilga ag'darishi mumkin?!

Bunday holatlarning oldini olish uchun, menimcha, tarjima tanqidini rivojlantirish kerak bo'ladi va yosh tarjimonlar uchun maxsus darslik-qo'llanmalarni yaratish hamda ularni ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni taklif qilgan bo'lardimki, bizdek endigina bu sohaga qo'l urayotgan yosh nav-nihollarni kata tarjimashunos olimlarga birlashtirish yoki ular bilan tez-tez bahs-munozara majlislarini tashkil etish ham o'rindir. Albatta, bizning yurtimizda ham buyuk tarjimonshunos olimlar talaygina va ular yosh kadrlarga to'g'ri yo'l ko'rsata olishadi.

Bu tarjima bilan bog'liq bo'lgan muammolarning bir tarafi edi. Agarda boshqa bir tomondagi muammoga qaraydigan bo'lsak, "o'g'irish deganda biz nafaqat bir tildan ikkinchi tilga verbal yoki verballashgan ishora harakatlarini tarjima qilish, balki tasviriy san'at va musiqiy kompozitsiya kabi noverbal signal vositalarini nutqqa ko'chirishni ham tushunishimiz kerak. ... Professor L.Barxudarov shunday yozadi: "Tarjima matni xech qachon to'la va asliyat matnga

absolyut ekvivalent bo'la olmaydi.”[9, B. 36 – 38] Shuning uchun bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilayotganda semantik yo'qotishlarni minimal holatga keltirish uchun ma'no turlarining qaysinisidir qurbon etilishi kerak. Masalan, rus adibi L.Penkovskiy millatimiz buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini rus tiliga tarjima qilishda “плакатъ” – “yig'lamoq” tasvirlovchi so'z o'rniga “рассыпать жемчуг слез” hamda “разбудил” – “uyg'otdi” so'zi o'rniga “солнечный рубин открыл глаза Шапиру” perifrastik iborasidan mohirlik bilan foydalangan.”

O'zbek tilida judayam ko'plab noverbal vositalar mavjud va ular bir qancha ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan, “yelkasini qoqish” noverbal ishora harakatining bizga ma'lum bo'lgan: *orqasidan chaqirish, qayg'udan yupatish, minnatdorlik bildirish, qilgan ishini maqtash, tanbeh berish, fikrini izhor qilish* va shunga o'xshagan o'ndan ortiq ma'nolari mavjud. Tarjimada shunday noverbal ishoralar uchun kelganimizda bu bizga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham tarjimondan tarjima qilayotgan asarining asl tilini chuqur bilish va undagi har bir so'z va iboralarning ma'nosini bilish hamda to'g'ri o'rinda ishlatish talab qilinadi. Misol uchun:

**O'zbek tilida:** - Yo'lchi do'stining so'zlariga xaxolab kuldi, ma'qul deganday qo'lini cho'zib, uning yelkasini qoqdi.

**Ingliz tilida:** - “You never offered to do that”, she complains to Sam, slapping his shoulder.

Shunday ekan, o'zbek tilidagi “*paranji*”, “*chimildiq*”, “*tumor*”; turk tilidagi “*afiyet olsun*”, “*zemheri*”, “*maalesef*”; ingliz tilidagi “*football widow*”, “*catch and release*”, “*table queen*” kabi leksemalarni tarjima qilayotganimizda ularga to'g'ri keladigan leksemalar ham yo'q. Shuning uchun, bu so'zlarni tarjima qilganimizda ularning semantik ma'nolari biroz o'zgaradi va bu kabi holatlar tarjima jarayonida muammo tug'diradi.

Demak, o'zbek tilidagi noverbal vositalarni chet tiliga tarjima qilganda yoxud xorijiy tildagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan noverbal vositalarning asl variantini yoki ekvivalentini topish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abzuazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. – T., 2010.
2. Abduazizov A.A. Tillar olamiga sayohat. – T., 1988.
3. G'aybulla Salomov. Tarjima tashvishlari. –Toshkent, 1983.
4. Ma'murjon Saidxonov. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –Toshkent, 2008.
5. Qurbanov M.A. “Tarjimada noverbal vositalarni tushunib yetish muammolari” maqolasi – “Science and education” Scientific journal, 2020.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 2008.
7. G'aybulla as-Salom. Til va tarjima. – T, 1966.
8. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
9. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
10. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
11. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in

- Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering.  
– 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
12. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
  13. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
  14. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
  15. <https://www.wikiwand.com/uz/Tarjima>
  16. <https://azizapulatovala.medium.com/noverbal-muloqotning-toqqiz-turi-8388eaa09df3>
  17. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Til>